

MAQSUD SHAYXZODA BUYUK TARJIMON

Tursinaliyev Dilshodjon Murodjonovich

Qodirov Islomjon Iqboljon o'g'li

(Toshkent davlat transport universiteti)

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbek adabiyotining yetuk namoyondalaridan biri Maqsud Shayxzoda haqida ma'lumotlar berilgan. Xalqimizning sevimli shoiri, dramaturg, adabiyotshunos olim, tarjimon, pedagogning hayotiy kechinmalari va ijodi keng talqin qilingan.

Kalit so'zlar: Mashxur shoir, zabardast dramaturg, adabiyotshunos olim, tarjimon.

KIRISH

O'zbek adabiyotining atoqli namoyandalaridan biri, mashxur shoir, zabardast dramaturg, adabiyotshunos olim va tarjimon Maqsud Shayxzoda 1908 - yil Ozarbayjonning Oqtosh shahrida tavallud topgan. Ularning oilasida shaharning eng ziyoli kishilari yig'ilib, munozara va mubohasa qilishardi. Bu adabiy muhit uchun Pushkin va Lermontov, Shekspir va Balzak, Firdavsiy va Xayyom, Nizomiy va Navoiy asarlari begona emas edi. Shunday oilada tarbiya topayotgan bo'lajak shoir boshlang'ich va o'rta ma'lumotni Oqtoshda olgach, Boku Oliy pedagogika institutida sirtidan o'qidi. Shayxzoda 1928 - yilda Toshkentga kelib, turli gazeta va jurnallar muharririyatlarida ishlaydi.

Iste'dodli shoir mohir tarjimon edi. U jahon adabiyoti mumtoz shoirlarning asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilishda kata xizmat qiladi. Shayxzoda Pushkinning “Mis chavandoz”, Lermontovning “Kavkaz asiri”, Mayakovskiyning “Juda soz” dostonlari va ko'plab she'rlarini, Shekspirning “Hamlet”, “Romeo va Julyetta” tragediyalari va sonetlarini, Nozim Hikmatning she'rlarini, Ozarbayjon shoirlari asarlarini o'zbek tiliga o'girdi. Shayxzodaning o'zbek adabiyoti tarixi, o'zbek xalq og'zaki ijodiyoti, xususan, Alisher Navoiy ijodini tadqiq etish borasidagi ilmiy ishlari ham tahsinga sazovordir. U filologiya fanlari nomzodi, dotsent ham edi. Ammo eng avvalo buyuk shoir edi. Adibning asarlari ko'plab qardosh va xorijiy xalqlar tillariga tarjima qilingan.

Shoir mahoratining o'sishiga, uning jahon adabiyotining klassik asarlarini g'oyat sevib o'rgangani, ularning boy badiiy tajribasini ustalik bilan o'zlashtirgani ham sabab bo'ldi. U G'arbiy Yevropa va rus adabiyotini mukammal bilgan holda o'zining Vatan adabiyotini – Sharq she'riyati merosini



ham to‘la o‘rgangan edi. Maqsud Shayxzoda hayoti va ijodi inson qalbida mehr va iliqlik uyg‘otadi. Ajdodlarimiz hayoti, ijodi va meroslarini o‘rganishlik, ulardan habardor bo‘lishlik hamda ularni hayotga tadbiiq qilishlik – bizni faqat va faqat muvaffaqiyat sari yetaklaydi. Maqsud Shayxzoda hayot yo‘li bizda kuchli harakter shakllantiradi. Uning hayot zarbalariga sabr bilan dosh berishi va o‘z faoliyatidan to‘xtamasdan, matonat bilan ijod qilishi barchamizga o‘rnak bo‘la oladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki Maqsud Shayxzoda Ozbarbayjon va O‘zbek xalq adabiyotining eng zabardast shoir va adiblaridan hisoblanadi. Mana necha yildirki ijodiy asarlari so‘ngan emas va qalbimizning tub tubidan joy olgan. 1-Prezidentimiz I.A.Karimov tashabbusi bilan Maqsud Shayxzoda nomiga medal, order, va stipendiyalar joriy etilgan . Uning asarlari va hayotiga qiziquvchi yoshlarimiz juda ko‘p va bundan keyin ham kamaymaydi . Maqsud Shayxzodaning ijodi shu qadar qiziqki u faqat bir yo‘nalishda emas balki turli xil yo‘nalishlarda juda qiziq faoliyat ko‘rsatgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shayxzoda Maksud. Shoir qalbi dunyoni tinglar (Tanlangan asarlar) // Toshkent, „Nihol“, 2008.
2. Naim Karimov, Maqsud Shayxzoda: Ma’rifiy-biografik roman. –T.: “Sharq”, 2009.
3. To‘lqin Eshbek. Shayxona shoir.«Tafakkur» jurnali (2007 yil, 4-soni).
4. Maqsud Shayxzoda zamondoshlari xotirasida, T., 1983.
5. <https://saviya.uz/hayot/tarjimai-hol/maqsud-shayxzoda-1908-1967/>.
6. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi, T., 1999.
7. Shayxzoda Maqsud. Shoir kalbi duneni tinglar (Tanlangan asarlar) // Toshkent, „Nihol“, 2008. 28 b. (o‘zbekcha).
8. Zokirov M. Maqsud Shayxzoda. Adabiy tanqidiy ocherk, T., 1969 y.
9. Yusuf Shomansur. Shayxzoda — bunyodkor shoir, T., 1972 y. - 179 b.
10. G‘afurov I., O‘rtoq shoir. Maksud Shayxzoda ijodiyoti, T., 1975 y. - 215 b.
11. Maksud Shayxzoda zamondoshlari xotirasida, T., 1983 y.
12. Shayxzoda Maksud. Shoir qalbi dunyoni tinglar (Tanlangan asarlar) Toshkent, „Nihol“, 2008.

